

**MINTAQANING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA
INNOVATSIYAGA YO'NALTIRILGAN INVESTITSION SIYOSATNI
AMALGA OSHIRISH YO'LLARI**

Qarshi davlat universiteti

Mustaqil tadqiqotchisi

Sattorov Shohruh

shohruhsattorov1994@gmail.com

Zamonaviy iqtisodiy nazariyalarda investitsiya iqtisodiy kategoriyasi xalqaro kapital oqimlari, innovatsion taraqqiyot jarayonlari hamda institutsional muhit bilan uzviy integratsiyalashgan holda talqin qilinadi. Bunda investitsiyalar mintaqaga kapital jalb etish bilan cheklanib qolmasdan, balki yangi texnologiyalarni joriy etish, ilmiy ishlanmalarni ishlab chiqarishga tatbiq qilish hamda raqobatbardosh iqtisodiy muhitni shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Yuqoridagi yondashuvlar tahlili shuni ko'rsatadiki, investitsiyalar mintaqada iqtisodiyotida passiv moliyaviy resurs emas, balki investitsion salohiyat va innovatsion taraqqiyot o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ta'minlovchi faol iqtisodiy mexanizm hisoblanadi. Aynan shu jihat investitsiyalarni hududiy iqtisodiy rivojlanishning barqarorligini ta'minlovchi, institutsional va texnologik yangilanishlarni jadallashtiruvchi asosiy omil sifatida baholash zarurligini asoslaydi. Tadqiqot jarayonida biz jadval asosida olimlarning qarashlarini qiyosiy tahlili qilib shuni o'rgandiki, investitsion salohiyat mintaqaning iqtisodiy o'sishini ta'minlovchi passiv resurslar yig'indisi emas, balki investitsiya faolligini yuzaga chiqaruvchi faol iqtisodiy kategoriya hisoblanganligi nomoyon bo'ldi. Jadval ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, innovatsion taraqqiyot investitsion salohiyatning real iqtisodiy natijalarga aylanishini ta'minlovchi asosiy mexanizm hisoblanadi.

Ya'ni investitsion resurslar innovatsion faoliyat bilan uyg'unlashgandagina mintaqada barqaror iqtisodiy o'sish ta'minlanadi. 1.1.1-jadval

1.1.1-jadval

Mintaqa iqtisodiy tizimida investitsion salohiyat va innovatsion taraqqiyot tushunchalarining nazariy qarashlari va o'zaro bog'liqligi bo'yicha qiyosiy tahlillar¹

Olim	Tahlil obyekti	Tushunchaning iqtisodiy mazmuni	Asosiy tarkibiy elementlar	Mintaqaviy rivojlanishdagi roli
I. Shumpeter²	Investitsiya va innovatsiya	Investitsiyalar innovatsiyalar orqali iqtisodiy rivojlanishni ta'minlovchi harakatlantiruvchi kuch	Kapital, tadbirkorlik, texnologik yangiliklar	Mintaqada yangi ishlab chiqarish tarmoqlari va iqtisodiy sikllarni shakllantiradi
M. Porter³	Investitsion salohiyat	Investitsion salohiyat hududning raqobat ustunliklari va institutsional muhitiga bog'liq	Infratuzilma, bozor muhiti, institutlar	Hududlararo raqobatbardoshlik va investitsiya jozibadorligini oshiradi
B. Lundvall⁴	Innovatsion taraqqiyot	Innovatsion taraqqiyot bilimlar almashinuvi va innovatsion tizimlar orqali yuzaga keladi	Ta'lim, ilmfan, biznes hamkorligi	Bilimga asoslangan mintaqaviy iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi
D. Aslanov⁵	Investitsion salohiyat	Hududning mavjud resurslaridan	Moliyaviy, mehnat, tabiiy resurslar	Barqaror hududiy iqtisodiy

¹

² Shumpeter J.A. *The Theory of Economic Development*. — Cambridge: Harvard University Press, 1934., Shumpeter J.A. *Capitalism, Socialism and Democracy*. — New York: Harper & Brothers, 1942.

³ Porter M.E. *The Competitive Advantage of Nations*. — New York: Free Press, 1990. Porter M.E. *Clusters and the New Economics of Competition*. — Harvard Business Review, 1998.

⁴ Lundvall B.-Å. *National Systems of Innovation: Toward a Theory of Innovation and Interactive Learning*. — London: Pinter Publishers, 1992.

⁵ Aslanov D.X. *Investitsiyalarni jalb etish va hududiy rivojlanish*. — Toshkent: Iqtisodiyot, 2016.

		samarali foydalanish imkoniyatlari majmui		o'sishni qo'llab-quvvatlaydi
A. Vahobov⁶	Investitsiya muhiti va salohiyat	Investitsion salohiyat investitsiya muhitining sifati bilan belgilanadi	Huquqiy kafolatlar, soliq tizimi, risklar	Investitsiya oqimini faollashtiradi va samaradorlikni oshiradi
U. G'ofurov⁷	Innovatsion rivojlanish	Innovatsion taraqqiyot ilmiy ishlanmalarni ishlab chiqarishga joriy etish jarayoni	Ilmiy-tadqiqot, texnologiya transferi	Raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni ta'minlaydi
Sh. Mustafakulov⁸	Mintaqaviy innovatsiyalar	Innovatsion taraqqiyot hududiy resurslardan samarali foydalanish vositasi	Raqamlashtirish, klasterlash	Hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni qisqartiradi
Mualifning ta'rifi⁹	<i>Mintaqaning investitsion salohiyati - bu hududning moliyaviy, moddiy, mehnat va institutsional resurslarini innovatsion faoliyat orqali iqtisodiy o'sish va raqobatbardoshlikka yo'naltirish imkoniyatlari majmui bo'lib, innovatsion taraqqiyot esa ushbu salohiyatni zamonaviy texnologiyalar, bilimlar va tashkiliy yangiliklar asosida real iqtisodiy natijalarga aylantirish jarayonidir.</i>			

Mazkur jadval mintaqa iqtisodiy tizimida **investitsion salohiyat** va **innovatsion taraqqiyot** tushunchalarining iqtisodiy mazmunini ochib berishga


⁶ Vahobov A.V. *Investitsiya faoliyatini boshqarish*. — Toshkent: Moliya, 2018.

⁷ G'ofurov U.Sh. *Innovatsion iqtisodiyot va texnologik taraqqiyot*. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.

⁸ Mustafakulov Sh.I. *Hududiy iqtisodiy rivojlanish va innovatsiyalar*. — Toshkent: Iqtisodiyot, 2020.

⁹ *-Mualif tomonidan qiyosiy tahlillar natijasida o'z fikri asosida yozilgan

qaratilgan bo'lib, xorijiy va mahalliy olimlarning nazariy qarashlari asosida muallif tomonidan umumlashtirildi va tizimlashtirildi va zamonaviy investitsiya nazariyalari hamda innovatsion yo'nalishlar bo'yicha nazariy yondashuvlar tahlili shuni ko'rsatadiki, investitsion salohiyat tushunchasi iqtisodiy adabiyotlarda bir xil talqin qilinmaydi va turli ilmiy maktablar tomonidan turlicha izohlanadi. 1.1.2-rasm



1.1.2-rasm. Zamonaviy investitsiya nazariyalari va innovatsion rivojlanish yo'nalishlarining o'zaro integratsiyalashgan modeli¹⁰

1.1.2-rasmda zamonaviy investitsiya nazariyalarining shakllanishi va ularning innovatsion rivojlanish omillari bilan o'zaro uzviy bog'liqligi tizimli ravishda aks ettirilgan. Rasmda investitsiya nazariyalarining evolyutsiyasi jahon iqtisodiyotining globallashuvi sharoitida sodir bo'layotgan chuqur strukturaviy va texnologik o'zgarishlar bilan chambarchas bog'liq ekanligi ko'rsatib berilgan.

Xususan, globallashuv jarayonlari ta'sirida shakllangan texnologik buzilishlar nazariyasi, portfel investitsiyalari nazariyasi, xalqarolashuv nazariyasi, monopolistik ustunlik nazariyasi hamda eklektik yondashuv investitsiya jarayonlarini faqat kapital qo'yilmalar nuqtayi nazaridan emas, balki innovatsion, institutsional va tashkiliy jihatlarni hisobga olgan holda talqin etishni taqozo etadi.

Xulosa va takliflar: Bu esa investitsiyaning zamonaviy iqtisodiy mazmuni

tobora murakkablashib borayotganini anglatadi. Rasmda alohida e'tibor transmilliy korporatsiyalarning rolini kuchayishiga qaratilgan bo'lib, ular global investitsiya oqimlarining asosiy tashuvchisi, innovatsion texnologiyalar va boshqaruv tajribasining mintaqalarga transferi mexanizmi sifatida namoyon bo'lmoqda. Mazkur jarayonlar investitsiya va innovatsiya o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni yanada mustahkamlab, mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishda yangi imkoniyatlarni yuzaga keltirmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati :

1. Abdullayev A.M. *Investitsion muhit va uning iqtisodiy rivojlanishdagi roli*. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2018.
2. Yo'ldoshev N.Q. *Mintaqaviy iqtisodiyot va investitsion siyosat*. – Toshkent: Fan, 2019.
3. Xodiev B.Yu. *Milliy iqtisodiyot va investitsiyalar*. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020.
4. Karimov U.S. *Investitsion jozibadorlikni baholash metodologiyasi*. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
5. Karimov U.S. *Investitsion jozibadorlikni baholash metodologiyasi*. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
6. O'zbekiston Respublikasining "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonuni (2019-yil 25-dekabr, O'RQ–598).